



KORXONALARING INVESTITSION VA INNOVATSION

FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Gafurova Umida Fatixovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasи

Dotsenti.

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faoliyat korxonalar rivojining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ularning uyg'unlashuvi iqtisodiy o'sish, mahsulot sifati va xizmat ko'rsatish darajasining oshishi, raqobatbardosh mahsulotlar yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, bugungi kunda korxonalar oldida innovatsion yechimlarga asoslangan investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish dolzarb vazifa sifatida turibdi.

Korxonaning faoliyati — bu uning individual va strategik xususiyatlaridan biridir. U tashkilot tomonidan mo'ljallangan harakatlar mazmuni bilan erishilgan natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi. Bunday bog'liqlik, odatda, korxonaning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, har qanday kompaniya raqobatbardoshligini oshirish, bozor ulushini kengaytirish yoki innovatsion salohiyatni kuchaytirish maqsadida rejalar tuzadi, strategiyalar ishlab chiqadi. Ammo bu rejalarning natijasi kompaniyaning o'ziga xos faoliyat yuritish uslubi, ichki resurslari, boshqaruv sifatiga qarab farqlanishi mumkin.

Shunday qilib, bir xil strategiyalar va imkoniyatlarga ega bo'lgan turli kompaniyalar turli natjalarga erishadi. Bu esa bevosita ularning boshqaruv yondashuvi, innovatsiyalarga tayyorlik darjasini va tashkilot ichidagi tashkiliy muhit bilan bog'liq. Ayniqsa, innovatsion faoliyatda sezilarli tafovutlar yuzaga keladi. Ya'ni, teng shart-sharoitlarga ega korxonalar innovatsion faoliyatda bir-biridan tubdan farq qiluvchi natjalarga erishishlari mumkin. Bu holat innovatsion faoliyatning murakkabligi va u bilan bog'liq omillar spektrining kengligi bilan izohlanadi.



Innovatsion jarayonlarning shakllanishi va samaradorligi ko‘p jihatdan korxona hajmi bilan chambarchas bog‘liq. Katta ko‘lamdagi korxonalarda ilmiytadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini amalga oshirish uchun zarur resurslar, moliyaviy imkoniyatlar hamda mutaxassislar salohiyati mavjud bo‘ladi. Bu esa innovatsiyalarni samarali joriy etishga sharoit yaratadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, sanoat ishlab chiqarishida faoliyat yuritayotgan yirik korxonalar salmoqli ulushni tashkil etadi va aynan ular texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda yetakchi hisoblanadi.

Bunga qarama-qarshi holda, kichik va o‘rta korxonalar resurslar va imkoniyatlar nuqtai nazaridan cheklangan bo‘lib, ular ko‘pincha innovatsion faoliyatda passiv bo‘lishadi yoki yangiliklarni joriy etishda sustkashlik qiladilar. Shu sababli, ular texnologik rivojlanishda yetarli darajada ulushga ega emaslar. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda yirik korxonalar rolini yanada muhimlashtiradi.

Investitsion faoliyat deganda korxonaning mavjud va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, modernizatsiya qilish, kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan moliyaviy, moddiy va intellektual resurslarni jalb qilish tushuniladi. Uning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

- Asosiy kapitalga sarmoya kiritish;
- Ilmiy-tadqiqot loyihamalarini moliyalashtirish;
- Infratuzilmani rivojlantirish;
- Kadrlar salohiyatini oshirishga investitsiyalar.

Innovatsion faoliyat yangi mahsulotlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va xizmatlar ko‘lамини kengaytirishga qaratilgan faoliyatdir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Yangi texnologiyalar ishlab chiqish va joriy etish;
- Mahsulotlarni diversifikatsiyalash;
- Marketing va boshqaruvda innovatsion yondashuvlar.
- Innovatsion faoliyatni faollashtirish korxonalarga nafaqat ichki bozorni, balki tashqi bozorlarni ham egallash imkonini beradi.



Korxona innovatsion rivojlanishni amalga oshirish uchun investitsiyalarga muhtoj bo'ladi. Shu sababli, bu ikki yo'naliш o'zaro uzviy bog'langan.

Korxonaning innovatsion rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri shundaki, mavjud resurslar, mahsulotlar va texnologiyalar vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotadi, ya'ni eskiradi. Innovatsion taraqqiyotga erishish uchun esa korxona o'z faoliyatini doimiy ravishda yangilab, yangilikka ochiq bo'lishi zarur. Eskirgan texnologiyalar, samaradorligini yo'qotgan mahsulotlar, bozor talablariga javob bermaydigan ish usullari va noto'g'ri qarorlar korxonaning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, korxonalar vaqt-vaqt bilan o'z mahsulotlarini, ishlab chiqarish texnologiyalarini, xizmat ko'rsatish sifatini, hatto ish o'rinalarini ham baholab borishlari, ya'ni sertifikatlashtirish, qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish choralarini amalga oshirishlari lozim.

Bundan tashqari, bozordagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish, iste'molchilar ehtiyojini o'rganish va tarqatish kanallarining samaradorligini tahlil qilish orqali korxona o'zining holatini xolis baholay oladi. Boshqacha aytganda, korxona faoliyatining barcha yo'naliшlarini tizimli ravishda tahlil qilish, o'ziga xos "rentgenografiya" qilish zarur. Bu tahlillar ishlab chiqarish jarayonlaridan tortib marketing strategiyasigacha bo'lgan barcha sohalarni qamrab oladi.

Shu asosda menejerlar doimo bir savol ustida bosh qotirishlari kerak: "Bizning mahsulotimiz yoki xizmatimiz qanday qilib eskiradi va uni qanday qilib yangilash mumkin?" Raqobatchilar bu borada tashabbus ko'rsatishidan oldin, korxona o'zi birinchi bo'lib yangilik tarafdori bo'lishi kerak. Aynan mana shu fikrlash tarzidagina innovatsiyaga asoslangan rivojlanish yuzaga keladi.

Amaliyotdan ma'lumki, rahbarlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tez orada dolzarbligini yo'qotishini anglagan paytdagina innovatsion yechimlarga jiddiy e'tibor qaratadilar. Innovatsiyalarning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi esa korxona ichki tuzilmasida zamonaviy yondashuvlar asosida shakllangan, ilg'or bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan jamoaning mavjudligiga bog'liq.



Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishi korxonalarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu korxonalarni sarmoyadorlar nazarida yanada jozibador qiladi. Texnologik yangiliklar yordamida mahsulot tannarxi pasayadi, sifat yaxshilanadi, ishlab chiqarish quvvati ortadi va bozor talablariga tez va moslashuvchan tarzda javob qaytarish imkoniyati yaratiladi. Shu kabi ijobjiy o'zgarishlar investitsiya muhitining yaxshilanishiga va investorlar ishonchining ortishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, eksport salohiyatini kuchaytirish orqali ham investitsion imkoniyatlar yanada kengayadi. Tashqi bozorlar bilan faol hamkorlik qilish, eksport geografiyasini kengaytirish va eksport hajmini oshirish orqali korxonalar o'zlarining xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon esa, o'z navbatida, ularning investitsion jozibadorligini yanada oshiradi.¹

Xulosa qilib aytganda, korxonalar uchun investitsion va innovatsion faoliyatni uyg'un holda tashkil etish, raqobatbardosh ustunliklarni shakllantirish va ularni mustahkamlashda asosiy omillardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, strategik investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov A.S. "Investitsiyalarni boshqarish", Toshkent, Iqtisodiyot, 2021.
2. Sharipov M. "Innovatsion menejment", Toshkent, 2020.
3. Tursunov B.O. "Korxonalarda investitsiya faoliyatini tashkil etish", Samarqand, 2022.

¹ Tursunov B.O. "Korxonalarda investitsiya faoliyatini tashkil etish", Samarqand, 2022.